

## **O‘ZBEK SHEVALARINING LINGVOGEOGRAFIK KO‘LAMI BA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Ortiqboyeva Dilshoda Oybek qizi**

Namangan davlat universiteti 4-bosqich iqtidorli talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tili shevalari, ularning lingvistik xususiyatlaridagi lingvogeografik, etnolisoniy va lingvomadaniy jarayonlar haqida fikrlar berilgan. O‘zbek xalq shevalari so‘z boyligi va bu boradagi ularni zamonaviy ko‘lamdagi tamoyillar bo‘yicha bir yarim asrlik tarixiga nazar solinadi.

**Kalit so‘zlar:** til leksikasi, leksik sath, dinamik qism, o‘zgaruvchanlik lug‘at tarkibib so‘zlarning paydo bo‘lishi, so‘zlarning iste‘mol doirasi, leksik ma‘no, yangi ma‘no, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy tuzum, milliy til.

**Аннотация:** В статье рассматриваются диалекты узбекского языка, лингвогеографические, этнолингвистические и лингвокультурные процессы в их лингвистических особенностях. Рассматривается словарный запас узбекских народных диалектов и их полуторавековая история в соответствии с современными принципами.

**Ключевые слова:** лексика языка, лексический уровень, динамическая часть, изменчивость словарного состава, появление слов, сфера употребления слов, лексическое значение, новое значение, развитие общества, общественный строй, национальный язык.

**Abstract:** This article examines the dialects of the Uzbek language, linguogeographical, ethnolinguistic, and linguocultural processes in their linguistic features.

The vocabulary of Uzbek folk dialects and their one-and-a-half-century history are examined in accordance with modern principles.

**Keywords:** language lexicon, lexical level, dynamic part, variability of vocabulary, emergence of words, sphere of use of words, lexical meaning, new meaning, development of society, social system, national language.

O‘zbek shevalari rang-barang va nihoyatda boy lug‘at zahirasi ega. Zamonaviy o‘zbek dialektologiyasi kamida 100 yillik ilmiy tarixiga ega. Agar shu bir asr davomida olib borilgan dialektal tadqiqotlarni kuzatib, shunga amin bo‘lish mumkinki, amalga oshirilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida shevalarning so‘z boyligi, rang-barangligi haqida tahlil berib borilgan. 1971-yilda nashr qilingan “O‘zbek xalq shevalar lug‘ati”ni yaratish uchun manbalar ro‘yxatida 50 ga yaqin shevalar materiallaridan foydalanilganligi qayd etilgan.

Bu lug‘at nashr etilganidan buyon ham o‘nlab tadqiqotlar yaratildi. Maxsus dialektal leksik tadqiqotlardan tashqari, etnografiya va toponimikaga doir ilmiy ishlarda ham minglab dialektal so‘z va iboralar jamlangan. Ular tilimizning boyligini ko‘rsatadigan, milliy tilimizning rivojiga hissa qo‘shadigan materiallardir. Bunday birliklarni o‘rganish, tahlil qilish milliylikimizni ko‘rsatadigan vositaga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning dolzarbligi haqida bo‘lim davomida o‘z fikrlarimizni bildirib o‘tamiz.

Leksika (yun. Lexis – so‘zga oid, lug‘aviy) – tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi, tilning lug‘at tarkibi. Leksika ma‘lum qonun-qoidaga bo‘ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to‘xtovsiz o‘zgarib turadi, binobarin leksik sath tilning eng dinamik qismidir. O‘zgaruvchanlik lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste‘moldan chiqishi, leksik ma‘noning o‘zgarib, yangi ma‘no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan holda leksika boyib boradi<sup>1</sup>. Milliy tildagi leksik o‘zgarishlar, avvalo, shevalarda ro‘y beradi. Ma‘no qirralari va qo‘llanish ko‘lami kengayib borishi natijasida adabiy tildan muqim o‘rin oladi. Milliy til, ya‘ni

---

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksika> (2023-yil, sentabr).

shevalar leksikasi adabiy til bilan chambarchas bog‘liq tarzda rivojlanib, o‘zgarib boradi. Ana shunday milliy tarkibidagi sheva va lahjalar leksikasini o‘rganish milliy, madaniy, lingvomadiy omillarga ko‘ra doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida dialektal leksikologiya ko‘p murojaat qilingan sohalardan biri hisoblanadi. Shevalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida leksikasi va leksikografiya masalasi bo‘yicha tahlillar amalga oshirilgan. Shuningdek, shevalar so‘z boyligi va leksikasi bo‘yicha ham alohida ishlar bajarilgan. O‘zbek xalq shevalari leksikasini zamonaviy planda tadqiq etish, deyarli, bir yarim asrlik tarixga ega. V.P.Nalivkin va M.A.Nalivkinalar tomonidan Namangan shevalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot va yaratilgan lug‘at zamonaviy o‘zbek dialektal leksikologiyasi va leksikografiyasining boshlang‘ich nuqtasi deyish mumkin. XX asrning 20-30-yillarida nazariy asoslari yaratilgan, 50-80-yillarida rivoj topgan xalq shevalari leksikasini o‘rganish ishlari bugungi kunda biroz sust bo‘lsa-da, yangi metod va qarashlar bilan, jumladan, korpus lingvistikasi yo‘nalishida, davom etmoqda. N.Abdullayevning “Afg‘oniston o‘zbek shevalari leksikasi” (1980), F.Abdullayevning “Xorazm shevalari leksikasi” (1966), “Andijon viloyat Yangiqo‘rg‘on tuman qipchoqlari leksikasining ba‘zi xususiyatlari” (1963), D.Abdurahmonovning “Beshkent tuman shevalaridan materiallar” (1961), M.Bo‘ronovning “Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridagi chorvachilik terminlari” (1972), B.Jo‘rayevning “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi” (1966), X.Jo‘rayevning “O‘zbek tili turk-kaltatoy shevasining fonetik va leksik xususiyatlari” (1981), S.Zufarovning “Sayram shevasining leksik xususiyatlari” (1965), S.Ibrohimovning “Farg‘ona shevasining kasb-hunar leksikasi” (1-jilid 1956, 2-3-jild 1959), A.Ishayevning “O‘zbek shevalarida metrologik so‘zlar” (1966), O.Madrahimovning “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasi leksikasini o‘rganish masalalari” (1973), N.Mirzayevning “O‘zbek tilining etnografik leksikasi” (1971), Sh.Nosirovning “Qo‘qon shevasining ba‘zi bir leksik xususiyatlari” (1966), N.Rajabovning “Qarnob shevasining leksik xususiyatlari” (1960), S.Rahimovning “Surxondaryo viloyatidagi o‘zbek shevalari leksikasi” (1974), T.Sodiqovning “Toshkent viloyati shevalarining leksikasi” (1968), A.To‘raqulovning “Qo‘qon guruh shevalari

leksikasi” (1971), O.Sharipovning “Pop shevasi leksikasidan” (1963), A.Shermatov “Qarshi shevasi leksikasidan namunalar” (3 ta kitob, 1960, 1961, 1964), Sh.Shoabdurahmonov “O‘zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati” (1966), V.Egamov “Jelovchi G‘allaorol shevasi leksikasi bo‘yicha kuzatishlar” (1960), X.Doniyorov “Qipchoq dialektlarining leksikasi” (1979), I.Bobojonov “Janubiy Xorazm etnografik leksikasi” (1997), I.Jabborovning “O‘zbek xalqi etnografiyasi”, “O‘zbek shevalari leksikasi<sup>2</sup>” (1991), A.Aliyev “Dialektal so‘zlar tarixidan” (1987), N.Shoimova “Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi” (2000), A.Allaberdiyev “Buxoro o‘g‘uz shevalaridagi asl turkiy leksik qatlam” (2015) kabi o‘nlab tadqiqotlarda o‘zbek xalq shevalarining leksikasi va leksikografiyasi tahlil qilingan. Shevalardan materiallarini yig‘ish, tavsif va tasnif qilish, ularni o‘zaro qiyoslash, adabiy til va badiiy asarlar matni, boshqa til va lahjalar bilan solishtirish bo‘yicha nazariyalar va amaliy metodik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Bu borada A.Ishayev, X.Doniyorov kabi olimlarning, umumleksik tadqiqotlar bo‘yicha E.A.Begmatovning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbek shevalarining lingvogeografik va lingvoareal tadqiq etilishi haqida fikr yuritilganda, aytish mumkinki, XX asrda o‘z o‘rni va maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek shevashunoslik fani keyingi yillarda evolyutsion taraqqiyoti natijasida empirik-klassifikatsion bosqichdan qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik va areallingvistik bosqichga o‘tdi. Tilshunoslik yoki dialektologiya fanining geografiya bilan til yoki sheva faktlarini tekshirishda umumiy metodlardan foydalanishga tabiiy ehtiyoji mavjud. Biron bir til materialining tarqalish joylarini tahlil qilishda, shevalar xaritasi yoki atlaslarini tuzishda shevashunoslik geografik bilimlarni qo‘llash zaruriyati yuzasidan areal lingvistika va lingvogeografiya fanlari paydo bo‘lgan<sup>3</sup>. Dialekt va shevalarni geografik-kartografik usulda tadqiq etishni “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida M.Koshg‘ariy boshlab bergan bo‘lib, buyuk olim o‘z “Devon”ida XI asr turkiy lahja va shevalarda gaplashuvchi xalqlar qaysi

---

<sup>2</sup> Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – 464 б.

<sup>3</sup> Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. Монография. – Наманган: НамДУ нашри, 2019. – Б.7.

hududlarda yashashini aks ettirgan xaritani joylashtiradi. O‘z davri uchun mukammal tarzda tuzilgan xarita bugungi dialektal tadqiqotlarga ham asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan tuzilgan ushbu xaritada toponimlar, oronimlar, shuningdek, etnotoponimlar – urug‘ va qabila nomlari keltirib o‘tilgan. Yer yuzining aylana shaklidagi tasvirida faqat sharqiy yarim shar ifodalangan bo‘lib, xaritaga sig‘magan nomlar kitobda batafsil sharhlangan. Bu tariximizdan bizgacha yetib kelgan noyob qadimgi obida bo‘lib, uni birinchi dialektal xarita deb atash mumkin<sup>4</sup>.

XX asrga qadar ham ko‘plab yevropalik sayyohlar va turkologlar tomonidan turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklar yashaydigan joylarning xaritalari tuzilgan. Bunday xaritalarning asosiy qismi siyosiy xarakterga ega bo‘lsa-da, ulardan dialektal belgilarni topish mumkin.

Bu borada rus olimlarining ilmiy faoliyati samaraliroqdir. O‘tgan asr davomida o‘zbek shevashunoslari tomonidan ham ko‘plab xarita va atlaslar yaratildiki, ular bugungi lingvistik geografiya va areal lingvistika asosining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. O‘zbek dialektologiyasida olib borilgan tadqiqotlar lingvistik xaritalardan xoli emas. Chunki, shevashunoslik geografiya fani bilan chambarchas bog‘liq. Ya’ni ma’lum hududda shevalarning tarqalish va qo‘llanilish chegaralarini belgilashda geografiya faniga tayaniladi. “Tilshunoslik terminlarining ensiklopedik lug‘ati”da: “Areal lingvistika (lotin tilidan – maydon, makon) – tilshunoslikning lingvistik geografiya usullaridan foydalangan holda, til hodisalarining hududiy darajada tarqalishini va tillararo (dialektlararo) o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan bo‘limidir. O‘zaro ta’sir qiluvchi til (dialekt) faktlarini hududiy tavsiflashda hal qiluvchi prinsip ularning frontal qamrovidir. Areal lingvistikaning asosiy vazifasi – lingvistik xususiyatlarning hududiy taqsimlanish xususiyatlari va izoglossalarning talqinini baholash hisoblanadi. Natijada dialektlar, tillar va hududiy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir

---

<sup>4</sup> Eltazarov, Juliboy; Mamajanov, Rasuljon. Mahmud Kashgary’s Map of Turkic World and Modern Geopolitical Position of Turkic Peoples – [https://www.academia.edu/38498841/mahmud\\_kashgary\\_s\\_map\\_of\\_turkic\\_world\\_and\\_modern\\_geopolitical\\_position\\_of\\_turkic\\_peoples](https://www.academia.edu/38498841/mahmud_kashgary_s_map_of_turkic_world_and_modern_geopolitical_position_of_turkic_peoples) (January, 2024).

sohalari aniqlanadi – umumiy tarkibiy xususiyatlar bilan tavsiflangan til birlashmalari belgilanadi” – deb izohlangan<sup>5</sup>.

Manbalarda izoglossa – arealogik tadqiqotlarning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, o‘zaro o‘xshash hodisa (qonuniyat)ning tarqalish (qo‘llanish) nuqtalarini va bu nuqtalarini tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi<sup>6</sup> sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, izoleksa – leksik, izomorfa – morfologik, izosintagma – sintaktik, izofona – fonetik, fonologik izoglossa kabi turlari mavjud. Til hodisasining qayerda shakllanib vujudga kelganligi va uning tarqalish chegaralarini aniqlash areal lingvistikaning asosiy vazifalaridan biridir<sup>7</sup>.

Dastlab Y.D.Polivanov tomonidan o‘zbek tilida izoglossa borligi va ularni xaritalash kerakligi haqida bo‘lsa, 1944-yilda professor A.K.Borovkov o‘zbek tili shevalari atlasini yaratish maqsadida “O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar” anketasini tuzdi. M.Mirzayev 1955-yilda “Buxoro viloyatidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa”, professor A.Aliyev 1964-yilda “Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa”, 1976-yilda professor A.G‘ulomov, A.Aliyev, K.Nazarovlar tomonidan “O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma” yaratdilar<sup>8</sup>. Hozirgi kunda har bir hududdagi oliy ta’lim tashkilotlari filologiya yo‘nalishlari uchun alohida anketa-so‘rovnomalar ishlab chiqilgan bo‘lib, amaliy darslarda va dala amaliyotlarida qo‘llanilib kelinmoqda.

Keyingi yillarda o‘zbek sheva va lahjalari bo‘yicha lingvomadaniy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Sun’iy til ko‘rinishdagi adabiy tildan ko‘ra shevalarda lingvomadaniy xususiyatlar yaqqol ko‘rinadi. Ya’ni, shevalar tayyor lingvomadaniy material hisoblanadi. O.Fayzulloyevning “O‘zbek folkloridagi lingvokulturemelarining inglizcha tarjimada

<sup>5</sup> Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н.Ярцева. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 683. <https://tapemark.narod.ru/les/043d.html> (2023-yil, avgust).

<sup>6</sup> Murodova N., Yarashova N. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Faktor press, 2023. – B. 117.

<sup>7</sup> Murodova N., Yarashova N. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Faktor press, 2023. – B. 117.

<sup>8</sup> Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси: Дарслик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги ХМН, 2004. – Б. 21-22.

berilishi”<sup>9</sup>, S.Rahimovning “Surxondaryo chorvachilik leksikasida etnografizmlar”<sup>10</sup>, F.Musayevaning “O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi”<sup>11</sup> kabi tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. O‘zbek tilshunosligi boshqa sohalari qatori dialektologiya fanida ham antroposentrik paradigma metodlari asosida til materialini tadqiq qilish taboro keng yoyilmoqda. Jumladan, bunday tadqiq usullaridan biri – lingvomadaniy tahlil metodi uchun sun’iy o‘zlashtirilgan til materialidan ko‘ra, tabiiy shakllangan til materialini, ya’ni xalq tili bo‘lgan sheva va lahjalarni o‘rganish qulay. Xalq shevalari – milliy qadriyatlarimiz ko‘zgusi, milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi, milliy tilimizning “joni”, madaniyatimizning yorqin ko‘rinishidir. Uni shunchaki, element, material sifatida emas, balki egasi bo‘lgan insondan ajratmasdan o‘rganish lingvomadaniy usulning vazifasi sanaladi. Lingvomadaniy tadqiqotlar asosiy birligi lingvokulturemalar hisoblanadi. Manbalarda unga quyidagicha ta’rif belriladi: til belgisining ma’nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo‘luvchi til birliklari lingvokulturemalar deyiladi. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxitiplar, mifologemalar, lakunalar, prezedent birliklar lingvokulturemalarni tashkil qiladi<sup>12</sup>. Dialektal tadqiqotlarni ham lingvomadaniy usullarda amalga oshirish, dialektal lingvokulturemalarning lug‘atini tuzish, nihoyatda, dolzarb masaladir. Tilmizning boyligini va madaniyligini namoyon qilishda bu tipdagi lug‘atlarning ahamiyati katta.

O‘zbek zamonaviy dialektologiya fanining yuzaga kelishi bilan dialektal lug‘atlarni yaratish dolzarbligini doimo qayd etib kelinadi. Yuqoridagi mulohazalarimizni dalillash uchun qayd qilib o‘tganimiz tilshunos olim A.Ishayevdan tashqari, taniqli tilshunoslar F.Abdullayev, A.G‘ulomov, K.Nazarov, A.Nosirov, D.Abdurahmonov, S.Ashirboyev,

---

<sup>9</sup> Файзуллоев Ў. Ўзбек фольклоридаги лингвокультура мавзуларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори жанри ва эртақлар мисолида). Фил.фан.б.фалс.д. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. –148 б.

<sup>10</sup> Раҳмонов Б. Сурхондарё чорвачилик лексикасида этнографизмлар //Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4, 2018. – Б. 108-112.

<sup>11</sup> Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – 120 б.

<sup>12</sup> Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2015. – Б. 26.



M.Abdiyev, N.Murodova ham o‘z tadqiqotlarida ta’kidlab keladilar. Shulardan xulosa chiqargan holda, avvalo, sheva va lahjalarni tadqiq etish ko‘lamini o‘zgartirish, hajm va sifat jihatdan yangicha mazmun kiritish lozim. O‘rganilmagan, chala tadqiq etilgan shevalarni o‘rganish, ularni tizimlashtirish, areal xususiyatlarini belgilash va xaritalash lozim. Bu ishlarni amalga oshirish, bundan 70-80 yil oldingi kabi oson kechmaydi. To‘g‘ri, bugun qo‘limizda kompyuter va boshqa elektron vositalar bor, ular ishlarimizni, ma’lum ma’noda, yengillashtiradi. Ammo shevalar “yo‘qolib”, xalq tili “adabiylashib” bormoqda.